

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14042254>

Boltaboyev A.M

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lif fakulteti katt o'qtuvchisi

Maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmuni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik jihatlari, shaxsda fuqarolik pozitsiyasini tarkib toptirish, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: vatanparvarlik, fidoyilik, burch, ta'lif, tarbiya, yosh avlod, o'quvchi-yoshlar, safarbarlik, jasorat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

В статье представлена информация о значении понятия патриотизма, психологических аспектах воспитания молодежи в духе патриотизма, формировании в человеке гражданской позиции, научных исследованиях по реализации патриотического воспитания.

Ключевые слова и понятия: патриотизм, самоотверженность, долг, воспитание, обучение, молодое поколение, учащиеся, мобилизация, мужество.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

The article provides information about the meaning of the concept of patriotism, the psychological aspects of educating young people in the spirit of patriotism, the formation of a civil position in a person, scientific research on the implementation of patriotic education.

Key words and concepts: patriotism, dedication, duty, education, training, the younger generation, students, mobilization, courage.

Inson shaxsini tarkib toptirishda yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularning hal etilishiga, ushbu masala bugungi Yangi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirilishiga alohida e'tibor qaratilayotgani ham ayni vaqtdagi ijtimoiy zarurat

talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli qarori ijrosi yuzasidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini bermoqda. Xozirgi kunda Yangi O'zbekistonimizni rivojlanish davriga etibor bersak "Vatanparvar" so'zini ayni manosi - o'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi shaxsdir. Vatanparvarlik esa, harbiy xizmatchilarni qalbida vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat hisoblanadi. Ona-Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifikat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali Yangi O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash mumkin.

Butun jaxonda sodir bo'layotgan voqeysalarni xisobga olgan xolda yosh avlodni tarbiyalashda psixologiya fanini axamyati va yoshlarga "Vatanparvar" so'zini asil manosiga etibor berishiga alovida urg'u berishimiz zarurligiga etibor qaratishimiz kerak, yani Vatanparvarlik – vatan oldidagi mas'uliyat va burchni anglash tushunchasini singdirishdan iborat. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko'p anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tuyg'usi shuncha baland bo'ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib borilishi bizga oldindan ma'lum. Har bir shaxs psixologiyasida vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Biz yangi O'zbekisonni qurishimizda haqiqiy vatanparvarlik ruxini yoshlar psixologiyasiga singdirishda millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish, kurashishdan iboratligini tushintirishimiz kerak. Bunda birinchi navbatda kelajak bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodning bilim olishi, yuqori malakali kadrlar bo'lib, o'z yurti va xalqiga sidqidildan mehnat qilishi, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o'rgatilishi nazarda tutiladi. Yangi O'zbekistonda aynan fidoyi, o'z Vatani manfaatlari g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash va millatimiz kelajagini shunday yoshlar boshqarishi xozirgi kunda dolzar masalalardan biri ekanligi davr talabidir. Fuqarolar ongida mamlakat Qurolli Kuchlari xizmatchilarining ijobiy timsolini shakllantirish, shaxsda fuqarolik pozitsiyasini tarkib toptirishning konseptual jihatlari, zamon talablariga asoslangan mafkura negizida shaxsda jamoaviylik va vatanparvarlikni shakllantirish, yoshlar jamiyat oldidagi burchining harbiy va davlat xizmati orqali bajarilishi, vatanparvarlikning yuksak axloqiy qadriyat sifatida shaxs psixik tuzilmasidagi o'rni, Vatanni sevish, uning manfaatlari uchun zarur bo'lsa o'z jonidan ham voz kechish muammolariga doir ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot

markazlari va oliv ta'lif muassasalari amalga oshirilmoqda. Biz "Vatanparvarlik" tushinchasini yoshlarga singdirishda avvolo tug'ilib o'sgan maskani, yani Vatanparvarlik – insonning o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan zaminiga bo'lgan muhabbatini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlari yig'indisi eknligini aloxida etiborga olishimiz kerak. Vatanparvarlikning asosiy belgilari sifatida avvalo: fidoyilik, oliv ko'rinishi esa jasorat ekanligini tushinislari kerak. Ana shu fidoyilik va jasorat xalqimizning ma'naviy merosida hamda ajdodlarimiz timsolida o'z aksini topgan. Yurtimizda dunyoga kelib, o'z ilmiy-ijodiy faoliyati bilan dunyoga mashhur bo'lgan allomalarimizning vatan, vatanparvarlik haqidagi fikrlari, asarlari nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi barcha insonlar uchun ham ibrat vazifasini o'tashi mumkin. Ular nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissalarini qo'shgan insonlardir. O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari uchun o'z yurti, tarixi, o'tmishda yashagan ota-bobolari faoliyati bilan haqli ravishda g'ururlanishi o'zlarida vatani taqdiri uchun daxldorlik tuyg'usi rivojlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda esa Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqalarning siymosi bebafo tarixiy namuna vazifasini o'taydi.

Vatanni himoya qilish naqadar ulug' savob, har bir musulmonning zimmasidagi farz hisoblansa, unga xiyonat qilish, quroq bilan bostirib kelish shu qadar katta gunoh, eng oliv jazoga loyiq jinoyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mafkuraviy tahdidlar o'ta xatarli va nozik tus olgan sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlar ichida g'oyaviy tarbiyaga yo'naltirilgan targ'ibot ishlarining dolzarb yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- g'araz maqsadlarida amalga oshirilayotgan g'oyaviy ta'sirlarga qarshi har bir fuqaroda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mavjud ma'naviy-mafkuraviy tahidlarni to'g'ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish;
- kuchayib borayotgan mafkuraviy tahidlarga nisbatan doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rgatish;
- fuqarolarning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, or-nomus, uyat va andisha kabi axloqiy tuyg'u va tushunchalarni ma'no mazmunini chuqur anglab yetishiga va amal qilishiga erishish;
- beparvolik va loqaydlikning oldini olish, hushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kamol toptirish.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, professor R.Maxmudovning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kunidagi 140-sonli "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" qarorining qabul qilinishi yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doirishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lif-tarbiyaviy ishlarga respublikamiz fuqarolarini, davlat va

nodavlat, notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalg etish hamda yoshlар ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida muayyan vazifalarni belgilab berdi.

Ma'lumot o'rнida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tegishli yo'naliшlar bo'yicha she'rlar, qo'shiqlar o'rgatish, ertak va hikoyalar aytib berish, rasmlar chizdirish, harbiy muzeylar va madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar, sport musobaqalari tashil etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishtirish asosida ularda ona yurtga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni o'z ichiga oladi;

ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagagi bolalar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, Ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ishonch va ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini oshirish, eshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi;

uchinchi bosqich (16-18 èshdagi o'smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nан yetuk yoshlар zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilaётган islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib boriladi;

to'rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, professional malakasini oshirish, egallagan kasbiga sadoqati va fidoyiliги bilan Vatan ravnaqi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qо'shish va bunga erishishni nazarda tutadi.

Vatanparvarlik his-tuyg'ulari doimo tinchlik, birdamlik, hamkorlik va bunyodkorlik faoliyati mazmunida ifodalanishi maqsadga muvofiq. Vatanparvarlik – bu, shaxsnинг vataniga bo'lgan muhabbati, sodiqligi, uning manfaatida uchun har qanday xizmatga shayligi va vatanni himoya qilishda, zarur bo'lsa jonini fido qilishga tayyorligidir. Vatanparvarlik tug'ilgan joyiga bo'lgan mehrdan boshlanib, shaxs yetuk yoshga yetganda umum davlat doirasidagi vatanparvarlikni anglash yuzaga keladi. Vatanparvarlik – bu, har bir millat va davlatning mavjud bo'lishi, ravnaqi, rivojlanishini belgilovchi asosiy ijtimoiy ustunlardan biri hisoblanadi. Fuqarolarda vatanparvarlikni shakllantirish, rivojlanishiga yetarli e'tibor bermaslik muqarrar ravishda shu jamiyat yoki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini zaiflashtirib, ma'naviyat va madaniyatning qadrsizlanishiga olib keladi. Natijada aholining hayot sifati pasayadi, norozilik kuchayadi. Bundan foydalangan destruktiv kuchlar davlatni osongina o'ziga bo'ysundirib olishi mumkin. Bu esa yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish qay darajada muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Shaxsda

vatanparvarlikning psixologik tuzilmasini tadqiq qilgan V.N.Myasishchevning fikricha, vatanparvarlik komponentlari shaxsning davlatga, xalqqa va o'z-o'ziga nisbatan munosabatida namoyon bo'ladi. – davlatga munosabat -davlat ramzlarini, davlatining tarixiy, madaniy an'analarini, davlat tilini bilish va ularga nisbatan munosabatda ko'rindi; – xalqqa munosabat - xalqning mentaliteti, qadriyatlari, asosiy xususiyatlarini anglash, vatanparvarlik, millatchilik, egotsentrizm, shovinizm tushunchalarining mohiyatini bilish, xalqning tinchlik va harbiy safarbarlik holatiga munosabat, xalq manfaatida vatanparvarlikni ifoda etishga ehtiyoj his qilishda ifodalanadi; – shaxsning o'ziga vatanparvar sifatida munosabat - o'zining huquqlarini, burch hamda majburiyatlarini bilishida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik asoslari bolalik davridan qo'yilib, shaxs yashayotgan shahar, qishloq, ko'cha, mamlakat, davlat ramzları va boshqalarni bilishdan boshlanadi va keyinchalik yosh ulg'aygan sari vatan haqidagi tasavvurlar boyib boradi. Insonning tug'ilgan joyiga bo'lgan mehr va yosh ulg'ayganda u joylarni vaqtı-vaqtı bilan ko'rish uchun qisqa muddatga bo'lsa-da, tashrif buyurishga majbur qiladigan qo'msash hislari yuqoridagilar asosida yuzaga keladi. Shu sababli yuqorida sanab o'tilganlar "Kichik vatan" deb ataladi. Bilimlar jamiyatasi sifatidagi gumanistik jamiyatda shaxsning kamol topish imkoniyatlari haqidagi yondashuvlarga ko'ra, zamonaviy shaxs tuzilmasining A.Inkeles tomonidan taklif qilingan tahliliy modeli diqqatga sazovordir.

Ushbu shaxsning eng muhim jihatlari quyidagilardir:

1. Eksperimentlar, innovatsiyalar va o'zgarishlarga ochiqlik.
2. Fikrlar rang-barangligiga tayyorlik, o'z dunyoqarashining o'zgarishidan cho'chimasdan turli xil nuqtai nazarlar mavjudligini tan olish.
3. O'tmishtga qarab emas, balki hozirgi zamon va kelajakka qarab mo'ljal olish.
4. Hayot to'siqlarini yengish qobiliyati.
5. Ijtimoiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham maqsadlarga erishish uchun bo'lg'usi harakatlarni rejalashtirish.
6. Ijtimoiy hayotni tartibga solish va prognoz qilish imkoniyatiga ishonch ko'zi bilan qarash.

7. Ishga qo'shgan hissasi va kasbiy mahoratiga qarab haq to'lanishiga bo'lgan ishonch.

8. Ma'lumot va ta'limni yuksak darajaga qo'yish.

9. Boshqalarning sha'ni va qadr-qimmatini ularning maqomi va mavqeidan qat'i nazar hurmat qilish. A.L.Juravlev va A.V.Yurevich tadqiqotlarida vatanparvarlikning psixologik jihatini tavsiflashga harakat qilingan.

Mualliflar vatanparvarlik ko'p komponentli tushuncha va hodisa bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlaganlar:

- a) Vatanga muhabbat tuyg'usi;
- b) shaxsiy manfaatlaridan ko'pchilik, omma manfaatlari uchun voz kechishga tayyorlik;
- 3) munosib xulq-atvor;

4) o‘z mamlakati, uning tarixi va xalqiga mansubligini his etish. O‘z taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat yoshlarga munosabat masalasida ularning hayotini ma’naviy boy, sermazmun qilish, xalqiga, Vataniga sadoqatli, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishidan manfaatdordir. Shuning uchun yoshlarning jismoniy, ma’naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarimizning siyosiy ongli, ma’naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol, mas’uliyatli, ona-Vatanga sadoqatli bo‘lib yetishishi jamiyat, davlat taqdiri uchun g‘oyat muhimdir.

ADABIYOTLAR:

1. Juravlev, A.L. Patriotizm kak obyekt izucheniya psichologicheskoy nauki / A.L. Juravlev, A.V. Yurevich. // Psichologicheskiy jurnal. – 2016. – T. 37. – № 3. – S. 88-98.
2. Karpova Y.A. Innovatsii, intellekt, obrazovaniye. – M., 1998. – 93-94-b.
3. Maxmudov R.M., Akbarov L.I. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi amalda. PEDAGOGS international research journal. Volume-1, Issue-1, January-2022, v 223-230.
4. Myasishev V.N. Sotsialnaya psichologiya lichnosti. - L.: 1974.
5. Omarov O.N. Patrioticheskoye vospitaniye starsheklassnikov sredstvami gosudarstvennoy muzikalnoy simvoliki Rossiyiskoy Federatsii: na materiale Respublikи Dagestan. Avt. diss. kand. ped. nauk. Maxachkala, 2007.
6. Ramatov J. Yoshlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy vazifasi. “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019, 129-131-betlar.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti”, Toshkent, 2006, 444-445-betlar. 8. Falsafa. Qomusiy lug‘at. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, Toshkent, 2004, 496 bet.